

YASHIL IQTISODIYOT: KELAJAKKA YO'L – BUGUNDAN BOSHLANADI

Xalmatjanov Farkod Maxamatjanovich

Alfraganus universiteti

Iqtisodiyot fakulteti katta o'qituvchisi

Abduraxmonov Shohruh Sherzod o'g'li

Alfraganus universiteti

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy

munoasabatlar yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqola zamонавиу дуньода экологик ва иқтисодији мувозанатни саqlashга bo'lgan ehtiyojni aks ettiradi. Ushbu tushuncha atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Yashil iqtisodiyot insoniyat uchun ekologik toza va iqtisodiy jihatdan samarali hayot tarzini shakllantirishga imkon beradi. Xususan, maqolada Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2025-yilni "Atrof-muhitni asrash va "Yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilishiga bag'ishlangan, tabiatni asrash, resurslardan oqilona foydalanish, ko'kalamzor hududlarni keskin ko'paytirish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, aholi salomatligini mustahkamlash va aholining barcha qismiga qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha ishlar o'rganiladi.

Kalit so'zlar: "Yashil makon", "Yashil" iqtisodiyot, tabiiy resurslar, Orol fojiasi, innovatsion texnologiyalar, barqaror rivojlanish.

Annotation: This article reflects the need to maintain ecological and economic balance in the modern world. It highlights approaches aimed at environmental protection, rational use of natural resources, and ensuring sustainable development. The green economy provides humanity with the opportunity to establish an environmentally friendly and economically efficient lifestyle. In particular, the article is dedicated to the declaration by our President, Shavkat Mirziyoyev, of 2025 as the "Year of Environmental Protection and Green Economy." It explores efforts to protect nature, use resources wisely, significantly increase green areas, mitigate the consequences of the Aral Sea disaster, strengthen public health, and create favorable conditions for all segments of the population.

Keywords: "Green space", "Green" economy, natural resources, Aral Sea tragedy, innovative technologies, sustainable development.

Анотация: Данная статья отражает необходимость сохранения экологического и экономического баланса в современном мире. В ней рассматриваются подходы, направленные на защиту окружающей среды, рациональное использование природных ресурсов и обеспечение устойчивого развития. Зеленая экономика предоставляет человечеству возможность сформировать экологически чистый и экономически эффективный образ жизни. В частности, статья посвящена объявлению нашим Президентом Шавкатом Мирзиёевым 2025 года "Годом охраны окружающей среды и зеленой экономики". Изучаются усилия по защите природы, рациональному использованию ресурсов, значительному увеличению зеленых зон, смягчению

последствий Аральской катастрофы, укреплению здоровья населения и созданию благоприятных условий для всех слоев общества.

Ключевые слова: «Зеленое пространство», «Зеленая» экономика, природные ресурсы, трагедия Арала, инновационные технологии, устойчивое развитие.

KIRISH

Bugungi kunda zamonaviy dunyoda ekologik va iqtisodiy muvozanatni saqlash masalasi global miqyosda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Insoniyat taraqqiyoti davomida tabiiy resurslardan ortiqcha foydalanish, urbanizatsiya va sanoatni rivojlantirish natijasida atrof-muhitga ancha zarar yetkazmoqda va ekologik inqiroz xavfini yuzaga keltirmoqda. Shu sababli, barqaror rivojlanish tamoyillariga asosolangan holda, atrof-muhitni asrash, yashil iqtisodiyot konsepsiyasiga o'tish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yashil iqtisodiyot – tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologiyani asrash va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan zamonaviy yondashuv hisoblanadi. Bu tushuncha nafaqat tabiatni asrash uni muhofaza qilish, balki inson salomatligini yaxshilash va iqtisodiy rivojlanish uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, O'zbekistonda Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ 436-sonli “2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan bir qancha hujjatlar imzolandi. Unga ko'ra, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida yashil va inkluziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish borasida maqsad qilib olingan. “Yashil iqtisodiyot” inson ehtiyojlarini qondirishga, balki atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirni hisobga olishga hamda kelajak avlodlar farovonligiga ustuvor ahamiyat berishga qaratilgandir.¹

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

“Yashil iqtisodiyot” iqtisodiy fan sifatida XX asr oxirlarida shakllangan bo'lib, uning tarkibiy qismi ekanligi va tabiiy muhit doirasida amal qilishini o'r ganuvchi fan hisioblanadi. Yashil iqtisodiyot konsepsiysi resurslarni tejashga yo'naltirilgan iqtisodiyot, ekologik iqtisodiyot, atrof-muhit iqtisodiyoti, yashil siyosat, xalqaro iqtisodiy munosabatlar nazariyasi, iqtisodiyotni modernizatsiyalash, innovatsion iqtisodiyot kabi iqtisodiy fanlardagi ilmiy g'oyalarni qamrab oladi.

“Yashil” iqtisodiyot tushunchasi keng tarqalangan, nisbatan to'liq ta'rifi BMTning Atrof-muhitni muhofaza qilish dasturi (UNEP) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, “Yashil” iqtisodiyot, bu odamlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va darajada kamaytirishga olib keluvchi iqtisodiyotdir. Mazkur tushunchaning mohiyatini yoritib berishda umum qabul qilingan yondashuvning mavjud emasligi “Yashil” iqtisodiyot konsepsiysi hali shakllanish bosqichida ekanligidan dalolat beradi. Ushbu konsepsiya iqtisodiyot tarmoqlari, “Yashil”

1. ¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ 436-sonli qarori.

iqtisodiyot nazariyasi, tamoyillari yoki “Yashil” iqtisodiyot siyosatiga nisbatan ham qo’llanilishi mumkin.

ASOSIY QISM

Bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan keng ko’lamli islohotlarning eng muhim vazifalaridan biri bu-inson hayot sifati va farovonligini ta’minlashdan iborat bo’lib, davlat siyosatining eng ustuvor yo’nalishi sifatida fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag’allikni qisqartirish, aholiga yangi ish o’rinlari yaratish va munosib yashash sharoitlari bilan ta’minalashni davlatimiz maqsad qilib qo’ydi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi “2030-yilgacha bo’lgan davrda O’zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiysi”, 2021-yil 30-dekabrdagi “Respublikada ko’kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari” to’g’risidagi farmonida tatbiq etilishi belgilangan “Yashil makon” umummilliy loyihasi dasturlarida atrof muhit ob’ektlarini inson ta’siri hamda boshqa salbiy ta’sir qiluvchi omillardan saqlash rejalarini ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda. Tashabbus doirasida har yili 200 mln tup ko’chat va buta ekish rejalahtirilgan. 2030-yilgacha yashillik darajasini 8% dan 30% ga yetkazish va bu foizni yana ham yuqori darajaga ko’tarish ko’zda tutilgan.² “Yashil makon” umummilliy loyihasining asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

Havo sifatini va
ekologik muhitni
barqarorlashtirish

Cho'llanish va
ekologik
muammolarni
yumshatish

Shaharlarda va
qishloqlarda
ko'kalamzor
maydonlarni oshirish

Orol fojiasi
oqibatlarini
kamaytirish

Shahar va
qishloqlarda ekologik
muhitni
sog'lomlashtirish

Ushbu loyiha uzoq muddatli istiqbolda O’zbekistonning ekologik xavfsizligini mustahkamlash bilan birga, barqaror iqtisodiy rivojlanish va kelajak avlodlar uchun qulay hayot shart-sharoitlarini yaratishga xizmat qiladi. “Yashil makon” faqat bugungi kunning tashabbusi emas, balki ekologik barqaror kelajak sari tashlangan muhim qadam hisoblanadi.

Muhtaram Prezidentimiz 2025-yilni “Atrof-muhitni asrash va “Yashil” iqtisodiyot” yili deb bejizga nom bermadi. Ushbu tashabbus mamlakatda ekologik muammolarni hal etish, barqaror rivojlanishni ta’minalashga va tabiiy resurslardan

2. ² O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PF 46-sonli Farmoni.

oqilona foydalanish hamda yashil iqtisodiyotga o'tishni jadallashtirishga qaratilgan. Ushbu loyihaning asosiy maqsadlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ✓ Ekologik barqarorlikni ta'minlash – havo, suv va tuproqning ifloslanishini ta'minlash;
- ✓ Yashil iqtisodiyotga o'tish – ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish;
- ✓ Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish – suv, elektr energiyasi va boshqa resurslarni tajash hamda samarali boshqarish;
- ✓ Ko'kalamzorlashtirish – shahar va qishloq hududlarida yashil maydonlarini kengaytirish, ko'chatlar (daraxtlar) ekish hajmini oshirish;
- ✓ Orolbo'yi hududlarini tiklash – Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish, qum bo'ronlarining oldini olish;
- ✓ Aholining ekologik savodxonligini oshirish – ekologik muammolar va ularni hal qilish yo'llari haqida targ'ibot olib borish.

Xususan, amalga oshirilayotgan chora tadbirlar bugungi kunda o'z samarasini ko'rsatmoqda. Masalan, chiqindilarni qayta ishlash tizimi takomillashtirilmoqda. Ekologik qonun kuchaytirilmoqda. Suv resurslarini tejash, ya'ni zamonaviy tomchilatib sug'orish tizimlari joriy qilinmoqda. Yomg'ir suvlaridan umumli foydalanish maqsadida, yomg'ir suvlarini yig'ish orqali qayta ishlangan ichimlik suvi yoki xo'jalik maqsadida foydalanish rejashtirilgan. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari rivojlantirilmoqda, quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilishi jadallahsmoqda. Shuni aytib o'tish joizki, 2026-yil oxiriga qadar aholi xonadonlarga quyosh panellari o'rnatish rejashtirilgan.

Bugungi kunda global muammoga aylanga Orol fojiasi, Orolbo'yi muammosi. Orol dengizining qurilishi natijasida, atrof-muhit degratsiyasi, iqlim o'zgarishi iqtisodiy va inson omiliga ta'sir qiluvchi muammolar keskin kuchaygan.



O'zbekiston Orol dengizining qurishini oldini olish maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirmoqda. 1,7 mln hektar maydondan ortiq himoya o'rmonlari barpo etildi, sahroga aylangan hududda 2 mlrddan ortiq saksovul va boshqa sho'rga chiqamli daraxtlar ekildi. Yashil qoplamlar hosil qilinmoqda. Bu esa chang va tuz bo'ronlarini kamaytirishga yordam beradi. Orolbo'yida ekologik toza sanoat klasterlari barpo etilib, qayta tiklanuvchi energiya va chiqindisiz texnologiyalar joriy etilmoqda.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekistonning barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiotga asoslangan siyosati nafaqat ekologik muammolarni hal qilish, balki mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi. Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va yashil texnologiyalarni joriy etish asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Orol fojiasini yumshatish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirish orqali havo sifati yaxshilanmoda, aholining salomatligi yaxshilanmoqda va keng ko'lamli "Yashil makon", "Yashil" iqtisodiyot loyihalari amalga oshirilmoqda va bu o'z natijasini bermoqda. O'zbekistonning bu yo'nalishdagi harakatlari innovatsion taxnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda, mamlakatni yashil iqtisodiyotga asoslangan barqaror kelajak sari yetaklamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ 436-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PQ 5877-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PF 46-sonli Farmoni.
4. "Yashil iqtisodiyot asoslari" o'quv qo'llanma, Toshkent, 2020-yil.